



SHUHRATNING “OLTIN ZANGLAMAS” ASARIDA ZOONIMLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN FRAZEOLOGIZMLAR

Xanmuratova Sayyora Xalmuxammet qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI

O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shuhratning “Oltin zanglamas” asarida shaxs zoonimlar asosida shakllangan frazeologizmlar o‘rganildi va ilmiy asosda tahlil etildi. Shuningdek, adibning iboralardan foydalanish mahorati ham keng yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: frazeologizmlar, badiiy asar, Shuhratning “Oltin zanglamas” asari, zoonimlar.

Til jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi asosiy kushdir. Insonning o‘zligini anglashi, unda milliy g‘urur, iftixor kabi oliy tuyg‘ularning qaror topishida tilning o‘rni nihoyatda beqiyos. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev «Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va beباho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir»¹ deb ta’kidlaganidek, o‘zbek millatining nafaqat jamiyatdagi o‘z mavqeini belgilashga, balki eng rivojlangan xalqlar qatoridan munosib o‘rin egallashga bo‘lgan da’vat hamdir. Ona tilimizning ravnaqi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi xalqimiz ma’naviy-ma’rifiy salohiyatining yanada yuksalishiga asos bo‘ldi.

Har bir xalqning asriy tajribasini o‘zida mujassam qilgan ona tilidagi lisoniy boyliklarni asrab qolish, ularni ilmiy tahlil qilish, keyingi avlodlarga yetkazish hozirgi fan oldida, xususan, tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi².

Har bir tilning frazeologik tizimi chuqur milliy ildizlarga ega. Frazeologizmlar milliy hayotning ko‘zgusi, shu sababli ham unda botiniy saqlangan milliy-madaniy asoslar xalq mentalitetini namoyon etadi. Frazelogizmlar milliy belgini ma’naviy farqlarda aks ettirib, madaniy va psixologik murakkab tafakkur usulini umumlashtirib ko‘rsatadi. Ularning milliy-madaniy ma’nosini frazeologizm tarkibidagi xalqning o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzini aks ettiradigan element bildiradi.

Shuhrat “Oltin zanglamas” asarida zoonimlar bilan bog‘liq iboralardan samarali foydalangan. Barcha birliklar juda topib qo‘yilgan, iboralar so‘z tejash va so‘z ma’nosini aniq lo‘nda keltirishga, yozuvchi bilan kitobxon o‘rtasidagi muloqot jarayonini osonlashtirishga va asar mazmunini yanada teranlashtirishga yordam

¹ <https://lex.uz/docs/4561730/> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil 21 -oktabrdagi PF-5850-son "O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" Farmoni

² Xudayarova M. O‘zbek tilidagi taom nomlari (Qoraqalpog‘iston hududi materiallari asosida). - Toshkent: Noshirlik yog‘dus, 2020. 3 -b.



beradi. Yozuvchilar odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo‘llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki qahramonlar tabiat, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o‘zgartiradi, qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanadi, yangi ma’no nozikliklari bilan to‘yinib boradi.

Badiiy asar tilida qator frazeologizmlar hayvonlarning u yoki bu xususiyatlarini timsollashtirish asosida shakllangan. Hayvonlarning yurish turishi, o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra: *tulki*-ayyorlik va *chaqqonlik*; *bo‘ri*-yirtqichlik va *ochko‘zlik*; *cho‘chqa*-*ochko‘zlik* va *ifloslik*; *ilon*-makkorlik, *hiylakorlik*, *razillik*, *qabihlik*; *ayiq-muruvvatlilik*, *qo‘pollik*, *beso‘naqaylik*; *maymun*-nomustaqillik, *taqlid qilish*; *arslon-kuchlilik*, *muruvvatlilik*, *oliyanoblilik*; *qo‘y-yuvvoshlik* va *nomustaqillik*; *chumoli-mehnatkashlik*; *eshak*-ahmoqlik va *qaysarlik*; *it-vafodorlik* va h., ramziy belgisi sifatida talqin etiladi.

Hayvonlarning xalq tomonidan idrok etilgan umumiyligi xislatlarini timsollashtirish asosida o‘zbek tilida, asosan, salbiy ma’noli frazeologizmlar shakllangan. Chunki hayvonlar timsoli inson tafakkurida aksariyat hollarda salbiylik bilan birikadi. Shuning uchun so‘kish, qarg‘ishni ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalari tarkibida hayvonga oid so‘zlar ko‘p uchraydi. Masalan, kishining o‘zining salbiy munosabatini bildirishda «hayvon» deya xitob qiladi. Hayvonlar obrazi ham frazeologizmlar tarkibida muhim dinamik komponent bo‘lib, frazelogik ma’noni shakllantiradi. Masalan, Qiy-chuv bilan yaradorlarni tashishar edi, derazalardan ko‘rpa yostiq hovliga uchar, *it egasin*, *mushuk bekasin* tanimas edi (382-bet), Posilkani tumbochkada asrab bo‘lmas, “*tuya qilib qo‘yuvchilar*” doim topilib turardi. (211-bet), Bilmadim, qaysi bir umring qisqa bo‘lgur *qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan* bolamga choh qazidi (190-bet), *It hidlab topmas yerda yurgan* edim (155-bet), Tashqaridan ko‘rgan odam bu ikki do‘st *orasidan qora mushuk o‘tganini* payqamas edi (98-bet), *Illooning oyog‘ini sanagan* Mirsalim Sodiqni shunaqa avrab tashladiki, bechora lom-mim deyolmay qoldi (53-bet), – Ermagingiz shunaqa bo‘lsa, astoydil harakat qilsangiz *arslonning ham terisiga somon tiqar ekansiz-da* (37-bet).

Shuningdek, frazeologizmlarning shakllanishida «*mushuk*», «*tuya*» so‘zlari ishtirokida frazeologizmlarning shakllanishiga mantiqiy asos bo‘ladi.

Salbiy ma’no ifodalovchi dialektal frazeologizmlar yovvoyi yoki yirtqich hayvonlarini simvollashtirish hisobiga shakllangan.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asar tilini tahlil qilish, til vositalarining nutqda ma’lum bir uslubiy ma’nolarda qo‘llanilishini o‘rganish, ularning sintaktik vazifalarini aniqlash, har bir morfologik birlikning semantik, grammatik va sintaktik



imkoniyatlarini aniqlash, hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligi rivojida, xususan, badiiy asar tili yoki boshqa bir matnni tahlil qilishda katta amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. –379 b.
2. Tajimuratovna, X. M. (2024). QORAQALPOG ‘ISTON HUDUDIDAGI EKKLEZIONIMLARNING XUSUSIYATLARI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(3), 179-183.
3. Tajimuratovna, X. M., & Tajimuratovna, X. M. (2023). O ‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTI TILIDA QO ‘LLANILGAN ORNITONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI. *SCIENCE TIME JOURNAL*, 1(3), 50-62.
4. Shuhrat. Oltin zanglamas. [Roman]. – T.: Sharq, 1995. 400-b.
5. Xudayarova, M. (2020). Qoraqalpog’iston o‘zbek shevalaridagi taom nomlarining o‘ziga xos xususiyatlari. *TDPU ILMIY AXBOROTLARI*.
6. Xudayarova, M., & qizi Usanova, Q. M. (2023). O ‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARI. CHIQISH KELISHIGI QIYOSI. *GOLDEN BRAIN*, 1(4), 62-66.

